

EKOLOGIK OMILLAR VA ULARNING TASNIFI

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

II bosqich talabasi

Tòlasheva Madinabonu Tòlqinboy qizi

(tolashevamadinabonu@gmail.com)

II bosqich talabasi

Mamataliyeva Feruza Mirtemurbek qizi

(feruzamamataliyeva2507@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik omillar ya'ni abiotik, biotik va antropogen omillarning tabiatga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: abiotik, biotik, antropogen, fitogen, zoogen, mikrobiogen, termofil, kriofil, orografik, edafogen,

Аннотация: В данной статье представлена информация о факторах окружающей среды, т.е. влиянии абиотических биотических и антропогенных факторов на природу.

Ключевые слова: абиотический, биотический, антропогенный, фитогенный, зоогенный, микробиогенный, термофильный, криофильный, орографический, эдафогенный,

Abstrakt: This article presents information about environmental factors, i.e. abiotic biotic and anthropogenic factors impact on nature.

Key words: abiotic, biotic, anthropogenic, phytogenic, zoogenic, microbiogenic, thermophilic, cryophilic, orographic, edaphogenic,

Kirish: Ekologik omillar — atrof muhitning organizmlar faoliyatiga o'ziga xos ta'sir etuvchi ma'lum sharoitlari va elementlari majmuyi. Ekologik omillar 2 katta guruh — abiotik va biotik omillarga bo'linadi. Ekologiyada „cheklovchi omillar“ tushunchasi ham mavjud, ular tarkibiga organizmlar mavjudligi va rivojlanishini cheklovchi har qanday omilni kiritish mumkin. Tirik organizmlarga ta'sir etuvchi muhitning har qanday bo'laklari ekologik omillar deyiladi. Ekologik omillar tirik organizmlarga turlicha ta'sir o'tkazadi, yani: 1. Ayrim turlarni ma'lum hududdan siqib chiqaradi va ularni geografik jihatdan tarqalishining o'zgarishiga olib keladi. 2. Har xil turlarning rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilib, ularning ko'payishi va o'lishini o'zgartiradi, bir joydan ikkinchi joyga migratsiya qilib, populyatsiya va

biotsenzorlar qalinligiga ta'sir qiladi; 3. Organizmlarda moslashish xislatlarini keltirib chiqaradi, ularda ichki va tashqi o'zgarishlarni sochilib, guruh bo'lib tarqalishi, qishki va yozgi tinchlik davri, fotoperiod reaksiyalar va boshqalar sodir bo'ladi; Muhit omillari vaqt bo'yicha xam o'zgarib turadi: a) Kun davomida yoki yilning fasllari bo'yicha, dengiz, okeanlarning to'lqinlarini ta'sirida muntazam o'zgarib turishi; b) Ekologik omillarning kutilmaganda, muntazam bo'lmagan holda o'zgarishi aniq davrlar ichida bo'lmasligi, har xil yillarda ob-havoning o'zgarishi, tabiiy ofatlar - dovul, kuchli bo'ron, suv bosishi, sel kelishi, yer silkinishlari, vulqonlar ta'sirida bo'ladi; d) Ma'lum vaqt yoki uzoq davr ichida bo'ladigan o'zgarishlar. Bu holatlar - tabiiy muhit iqlimining isib yoki sovib ketishi, doimiy mol boqish natijasida o'tloqzorlarning tabiiy holati buzilishi, daryo etaklaridagi toqayzorlar, ko'llarning suvsizlikdan yo'qolib ketishi, ekologik omillar o'zgarishidir. Muhit — quruqlik, suv, havo va yer osti qismlaridan iborat. Tashqi muhit tushunchasidan tashqari yashash sharoitlari degan tushuncha ham mavjud bo'lib, bu tushunchaga organizmning yashashi uchun zarur bo'lgan elementlar yoki omillardan yorug'lik, issiqlik, suv, oziqlanish va shu kabilar kiradi. 1933-yilda D.N.Kashkarov muhit omillarini 3 guruh (iqlim, edafik va biotik)ga bo'ladi. Keyin harorat, yorug'lik, namlik, suv, qum, relyef kiradi. Muhitning muhim (asosiy) abiotik omillari iqlim (harorat, yorug'lik, havo, bosim), tuproq, muhitning kimyoviy tarkibi va tabiiy, oziq-ovqat resurslarining mavjudligidir. Abiotik omillar Bu notirik tabiat omillaridir. Ekologik omillar yig'indisi organizmlarning o'sishi, rivojlanishi, yashab qolishi, organizmlarning ko'payishigasabab bo'ladi, ularning mavjudlik sharoitini tavsiflaydi. Iqlimiy omillar - quyosh nuri, harorat, havo namligi. Iqlimiy omillar misolida organizmlarning hayot faoliyati va yashashi uchun muhitning abiogen omillari ahamiyatini ko'rib chiqamiz. Hayot birinchi navbatda fermentli oqsillarning faoliyati va tuzilishini, xossalarni namoyon qiladigan haroratda saqlanadi. Bu haroratning o'rtacha 0 dan 50 °S oralig'ini tashkil qiladi, lekin ko'pgina organizmlar uchun hayot faoliyati oralig'i keng. Ushbu belgilar bo'yicha organizmlarning ekologik turlari quyidagicha farqlanadi: termofil, kriofil va mezoterm. Termofillarga haroratning yuqori shartli chegarasidan past haroratda yashay olmaydigan va ko'paya olmaydigan organizmlar kiradi (ko'pincha haroratning shunday chegarasi 18-20 °S qabul qilinadi). Kriofillar jumlasiga (yoki termofoblar) teskari, faqat nisbatan past haroratda (10 °S baland bo'lmagan) yashash va ko'payish qobiliyatiga ega bo'lgan organizmlar kiradi. Mahalliy omillar: relyef,

tuproq xossalari, shoʻrlik, oqim, shamol, radiatsiya va boshqalardir. Bu omillar organizmga bevosita yoki bilvosita taʼsir qiladi. Masalan, yorugʻlik va issiqlik bevosita taʼsir koʻrsatsa, relyef bevosita taʼsir koʻrsatuvchi omillar - yoritganlik, namlik, shamol va boshqalarning taʼsirini belgilaydi. Biotik omillar Bunga tirik tabiat elementlari (tirik organizmlarning bir-biriga va yashash muhitiga taʼsiri) kiradi. Biotik omillar fitogen va zoogen omillarga boʻlinadi. Fitogen omillar deganda yuksak va tuban oʻsimliklarning organizmga taʼsiri eʼtiborga olinsa, zoogen omillar deganda esa organizmga barcha hayvonlarning taʼsiri nazarda tutiladi. Bir organizm hayot faoliyatining boshqalariga taʼsiri va ularni oʻrab turgan muhiti biotik omillar deyiladi (sinonimlar: biogen, biologik, biotsenotik omillar). Biotik omillarni antagonistik va noantagonistik qismlarga boʻlish mumkin. Antagonistik munosabatda ikki turdagi organizmlar bir-birini yengadi (- -), yoki ulardan birortasi oʻziga ziyon yetkazmasdan boshqasini yengadi (+ -). Raqobat - bu turlararo va turlar ichidagi shunday munosabatki, bunda populyatsiyalar (alohida tur) oziqlanish va yashash muhitining sharoitlari uchun bir-birlari bilan kurashadi. Populyatsiyalar meʼyor chegarasigacha oʻsganda ichki fiziologik mexanizmlar regulyatsiyasi harakatga keladi: alohida turlarning oʻlimi koʻpayadi, nasldorligi kamayadi, ruhiy tanglik holati (stress) paydo boʻladi (janjallar, kannibalizm va boshqalar). Biz biotik va abiotik omillar toʻgʻrisida gapirganimizda, ularni faqat bitta yoʻnalish boʻyicha harakat qiladi, deb tushunmaslik kerak. Teskari aloqalar ham mavjud, xususan organizmlar muhitning ekologik va abiotik omillarini ham oʻzgartirishi mumkin. Chigirtkalar oʻsimliklarni yoʻq qilganda oʻsha joyning shamol rejimi, namligi, harorati va boshqa tavsiflari ham oʻzgaradi. Oʻsimlik va boshqa organizmlarning jamoasi (koʻpincha mikroorganizmlar) oʻzlarining yashash muhiti boʻlgan tuproqning “yaxshilangan” shaklini tashkil qiladi. Yana shu narsa maʼlumki, shaharlar, yaʼni inson faoliyati faol namoyon boʻlgan joylarda oʻzining alohida mikroiklimi shakllanadi va boshqalar. Antropogen omillar Bu inson faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan omillar, yaʼni odamlarning oʻsimlik va hayvon turlari yoki ular guruhlarining tuzilishiga koʻrsatgan taʼsiridir. Tirik organizmlarga juda koʻp omillar taʼsir koʻrsatadi. Ana shu omillarning ayrim organizmlarga koʻrsatgan taʼsiri natijasi esa xilma-xildir. Omilning organizm hayoti uchun eng qulay darajasi — optimal daraja deyiladi. Har qanday ekologik omillarning eng yuqori darajasi maksimum va eng quyi darajasi minimum boʻladi. Tabiiyki, har bir tirik organizm uchun u yoki bu ekologik omilning oʻz maksimumi, minimumi va optimumi boʻladi. Shuningdek, uy

pashshasi 7° dan 0° gacha yashashi mumkin. Ular uchun yashashning optimum darajasi $36-40^{\circ}$ ni tashkil etadi. Eng muhim antropogen omillardan biri muhitning ifloslanishi hisoblanadi. Antropogen omil inson va uning xo‘jalik faoliyatining tirik organizmlarga va butun tabiatga turli xil ta’sirlari majmuini tashkil etadi. Antropogen omillarni ma’lum ma’noda biotik omillar guruhiga mansub deb qarash ham mumkin. Ammo, inson ongli faoliyatining atrof-muhitga, jumladan, tirik tabiat (organizm)ga ta’siri boshqa biologik mavjudotlarnikiga nisbatan beqiyosdir. Ayniqsa, hozirgi davrda yerdagi hayot taqdiri ko‘p jihatdan insonga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun antropogen omillarni alohida chuqurroq o‘rganish va unga yetarli ahamiyat berish muhim ekologik zarurlardan biridir. Muhitning ekologik omillarini tavsiflanishi (1-jadval)

Abiotik omillar Biotik omillar Iqlimiy: yorug‘lik, harorat, namlik, shamol, bosim Fitogen: o‘simliklar ta’siri Edafogen: tuproq xususiyatlarining organizmlarga ta’siri Zoogen: hayvonlar ta’siri Orografik: yer yuzasi past- balandliklarining ta’siri Mikrobiogen: viruslar, bakteriyalarning organizmlarga ta’siri Hidrologik: suv muhiti xususiyatlarining organizmlar hayotiga ta’siri Antropogen omillar Insonning organizmlarga bevosita va yashash muhitlariga ta’siri Omillar ichida ayniqsa namlikning ta’siri katta. Namlik uch xil ko‘rsatkichda bo‘ladi: mutloq namlik, eng yuqori namlik va nisbiy namlik. Mutloq namlik - bu $1m^3$ havo tarkibidagi o‘rtacha namlik. Eng yuqori namlik - bu $1m^3$ havoni to‘yintirish uchun sarflanadigan namlik hisoblanadi. Amalda ko‘proq nisbiy namlik tushunchasi qo‘llaniladi. Bu - mutloq namlikning eng yuqori namlikka nisbatan foiz hisobida olingan miqdoridir. Boshqacha aytganda nisbiy namlik havoning suv bug‘lari bilan to‘yinganlik darajasini belgilovchi foizli ko‘rsatkich hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Ergashev, M.T.Yulchiyeva, O‘.A.Ahmedov, A.A.Abzalov, Ekologiya. Toshkent-2018
2. www.ziyo.uz.com kutubxonasi
3. A.Ergashev, T.Ergashev "Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish", "Yangi asr avlodi", 2005-yil.
4. D.Yormatova. Ekologiya. -T.: «Fan va texnologiya», 2012, 256 bet
5. Ekologiya / darslik: Z.M.Sattorov.T.: «Sanostandart» nashriyoti, 2018-yil. 360 bet.
6. P.S.Sultonov Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining «M usiqa» nashriyoti, 2007-y.

7. <https://arxiv.uz>

8. Каримова Ф. Р., Муминова А. Ю. Острые аллергические состояния у детей, проживающих в экологически неблагоприятном регионе города Бухары // Вестник Совета молодых учёных и специалистов Челябинской области. – 2017. – Т. 1. – №. 1 (16). – С. 6-9.

9. Karimova F.R., Muminova A.Yu. Acute allergic conditions in children living in an ecologically unfavorable region of the city of Bukhara // Bulletin of the Council of Young Scientists and Specialists of the Chelyabinsk Region 1 (1 (16)), 6-9 [in Russian]

10. Каримова Ф. Р. Этиологические факторы острых аллергических состояний у детей, проживающих в условиях города Бухары // Новый день в медицине.- 2020/5.- Т.5.- № 43.- С.246-253

11. Каримова Ф. Р. Острые аллергические состояния у детей, проживающих в экологически неблагоприятном регионе // Молодой ученый.-2019.-№22.- С.- 247-248

12. Каримова Ф., Муминова А. Особенности этиологии, клинического течения острых аллергических состояний у детей, проживающих в экологически неблагоприятном регионе города Бухары // Журнал проблемы биологии и медицины.- 2018/5/14.- № 2.1 (101).- С.34-37

13. Каримова Ф. Р., Саидов А. А., Турдиев М. Р. Значение метода математического моделирования для распознавания острых аллергических заболеваний и состояний у детей // Вестник Совета молодых учёных и специалистов Челябинской области. – 2017. – Т. 3. – №. 2 (17). – С. 47-54. “JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI VOLUME 1, ISSUE 9, 2023. DECEMBER ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869 1040

14. КАРИМОВА Ф. Р. КЛИНИЧЕСКИЕ ФОРМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ОСТРЫХ АЛЛЕРГИЧЕСКИХ СОСТОЯНИЙ У ДЕТЕЙ // Вестник Совета молодых учёных и специалистов Челябинской области. – 2017. – Т. 3. – №. 2. – С. 40-46.

15. Каримова Ф. Р., Нуритов А. И. ОСОБЕННОСТИ ЭТИОЛОГИИ ОСТРЫХ АЛЛЕРГИЧЕСКИХ СОСТОЯНИЙ У ДЕТЕЙ, ПРОЖИВАЮЩИХ В БУХАРСКОМ РЕГИОНЕ // ББК 5л0 С 56. – 2014. – С. 80.

16. Каримова Ф.Р. Жураева Б.У Рахимов Б. А. Организация работы по определению особенностей острых аллергических состояний у детей // Молодой организатор здравоохранения. Сборник научных статей студентов и молодых учёных, посвященный памяти проф.В.К.Сологуба. 2009.- С.105-110

17. Каримова Ф.Р. Обращаемость детей в скорую медицинскую помощь (СМП) города Бухары по поводу бронхиальной астмы // Актуальные проблемы заболеваний органов дыхания у детей. Сборник тезисов. –Ташкент, 2005.-С.84-85

18. Karimova F.R. Acute allergic conditions in children living in an ecologically unfavorable region // Young scientist, № 22 P. 247-248 [in Russian]

19. Karimova F.R., Muminova A.Yu. Features of the etiology, clinical course of acute allergic conditions in children living in an ecologically unfavorable region of the city of Bukhara // Journal of Problems of Biology and Medicine, Iss. 2. № 1(101) P. 34-37 [in Russian]

20. Karimova F.R. Regional aspects of acute allergic conditions in children living in an ecologically unfavorable region // Bulletin of the Council of Young Scientists and Specialists of the Chelyabinsk Region Iss. 1. № 2(21) P 26-28 [in Russian]

21. Karimova F.R., Saidov A.A., Turdiev M.R. The value of the method of mathematical modeling for the recognition of acute allergic diseases and conditions in children // Bulletin of the

Council of Young Scientists and Specialists of the Chelyabinsk Region Iss. 3. № 2(17) P 47-54 [in Russian] 22. Karimova F.R. Clinical manifestations of acute allergic conditions in children // Bulletin of the Council of Young Scientists and Specialists of the Chelyabinsk Region Iss. 3. № 2(17) P 40-46 [in Russian]

23. Каримова Ф.Р. Этиологические факторы острых аллергических состояний у детей, проживающих в условиях города Бухары. Тиббийётда янги кун 2022, 246-252 б “JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI VOLUME 1, ISSUE 9, 2023. DECEMBER ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869 1041

24. Каримова Ф.Р. Этиологические факторы острых аллергических состояний у детей, проживающих в условиях города Бухары. Вестник ТМА, 2022. С. 77-8

25. Karimova F.R. Optimising methods for the prevention of acute allergic conditions. Deutsche internationale Zeitschrift für zeitgenössische Wissenschaft 2022. P. 9-11

26. Karimova F.R. Optimization of Treatment of Steroid-Sensitive Dermatoses by Methods of Traditional Medicine AMERICAN Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences Volume 01, Issue 04, 2023 ISSN (E): XXX-XXX

27. Karimova F.R. Optimization of Allergodermatosis Treatment. AMERICAN Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences Volume 01, Issue 04, 2023 ISSN (E): XXX-XXX

28. Karimova F.R. Etiological Factors of Acute Allergic Conditions in Children Living in the Conditions of the City of Bukhara. AMERICAN Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences Volume 01, Issue 04, 2023 ISSN (E): XXX-XXX

29. Каримова Ф.Р. СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ТЕРАПИИ РАЗЛИЧНЫХ ВИДОВ АЛЛЕРГОДЕРМАТОЗОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОМПЛЕКСНОЙ МАЗИ "ГУСИНЫЙ ЖИР+" AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI 71-77стр

30. Каримова Ф.Р. СОВРЕМЕННЫЙ ВЗГЛЯД НА ПАТОГЕНЕЗ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ЛЕЧЕНИЯ ПСОРИАЗА МЕТОДАМИ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ. Educational Research in Universal Sciences SPECIAL ISSUE 15 | 2023 November, ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | стр 624- 635 https://t.me/Erus_uz Multidisciplinary Scientific Journal

30. Каримова Ф.Р. СОВРЕМЕННАЯ ТЕРАПИЯ “СТЕРОИДЧУВСТВИТЕЛЬНЫХ ДЕРМАТОЗОВ” С ПРИМЕНЕНИЕМ МЕТОДАМИ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ Educational Research in Universal Sciences SPECIAL ISSUE 15 | 2023 November, ISSN: 2181-3515 стр 616-624 VOLUME 2 | 2023 625 https://t.me/Erus_uz Multidisciplinary Scientific Journal

31. Karimova F. R. MODERN THERAPY OF "STEROID SENSITIVE DERMATOSES" WITH THE USE OF TRADITIONAL MEDICINE METHODS SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 11 NOVEMBER 2023 P-475-482.

Research Science and
Innovation House